Yangi O'zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish yo'nalishlari.....	1101
Raxmonova Aziza Tolibovna	
Transitioning to a Green Economy and Implementing Sustainable Technological Changes in Uzbekistan.....	1106
Umarov Elshod G'ulom o'g'li	
Texnik yo'nalishdagi oliy ta'lim muassasalari daromadlari tarkibi va ularning o'ziga xos jihatlari.....	1112
Yuldashov Elmurod Abdujalil o'g'li	
Совершенствование системы профессионального управления жилищно-коммунальным хозяйством Узбекистана.....	1116
Икромова Ханифа Одилевна	
Sanoat korxonalarini kreditlash amaliyotining zamonaviy holati.....	1121
Kamalova Jamila	
O'zbekistonda davlat ishtirokidagi korxonalarining huquqiy maqomi va ularni isloh qilishning istiqbollari.....	1125
Qahhorov Azizjon Ahror o'g'li	
Nodavlat notijorat tashkilotlari mablag'lari va ulardan foydalanish to'g'risidagi bajarilishlarga oid hisobotni tuzish va taqdim etish tartibi.....	1131
Ne'matov Oybek Ismatullayevich	
Предприятие автомобильной промышленности как объект реализации концепции устойчивого развития.....	1136
Туйчиев Комилжон Лазизович	
Tijorat banklari aktivlari diversifikatsiyasining nazariy ahamiyati.....	1143
O'ktamova Nozima Narzulla qizi	
Tijorat banklarida yangi masofaviy bank xizmat turlarini rivojlantirish.....	1146
Umarov Abdulquddus Abdilxatovich	
Некоторые вопросы эконометрической оценки CES – функций и их практическое применение в экономических задачах.....	1151
Шадиева Гулнора Мардиевна, Усманов Фарзод Шохрухович	
Использование искусственного интеллекта в спортивной индустрии.....	1158
Усманова Дилфузахон Иброхимовна	
The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.....	1163
Po'latov Sherzodbek Oybek o'g'li, Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li	



Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishda investitsiyalardan foydalanishni takomillashtirish (Andijon viloyati misolida)	1168
Xolmatov Sanjarbek Xojimatovich	
O'zbekiston temir yo'l transport tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari	1174
Qilichev Umid Ibadullayevich	
Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasi sharoitida raqamli banklar resurslarini oshirish choralari	1181
Xamraqulova Gulnozaxon Faxriddin qizi	
O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari kredit foiz stavkasini muvofiqlashtirish masalalari	1185
Jumayev Muzaffar Mahmud o'g'li	
O'zbekistonda Islom banklari faoliyatini tashkil etishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	1191
Vasiyev Alisher Samiyevich, Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Islom iqtisodiyotining mohiyati	1197
Sayfullayev Sirojiddin Soli o'g'li	
Budjet mablag'larini taqsimlanishi va maqsadli sarflanishida inson kapitalidan foydalanish va jamoatchilik nazoratining samaradorligi	1201
G'ofurov Bekzod Fayzulla o'g'li	
Maxsus iqtisodiy zonalar investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishda tarif va notarif mexanizmlaridan foydalanish imkoniyatlari	1207
Ja'sur Umirzoqov Artiqboy o'g'li	
Перспективное развитие промышленной кооперации между странами	1212
Назарова Раъно Рустамовна, Жартай Жанибек Маратулы	
Soliqlar yig'iluvchanligini oshirishga ta'sir etuvchi omillar	1218
Berdiyeva Uguloy Abduraxmanovna	
Ta'lim sifatini ta'minlash oliy ta'lim xizmatlari bozorini rivojlantirishning asosiy omili	1222
Nematov Inatillo Ubaydullayevich	
Aholiga ko'rsatiladigan bank xizmatlarini takomillashtirish	1228
Umurzakova Adiba Ochilovna	
Tijorat banklari resurslari shakllanishining manbalari va yo'llari	1232
Raxmanov Ilxom Xurramovich	
Факторы развития культурного туризма в Узбекистане	1238
Пулатова Сурайё Юлдашевна	
Пути эффективного использования внутренних инвестиций в национальной экономике	1242
Рафиева Зарина Хусановна	
Development of the Country's Economy Through the Development of the Stock Market in Developing Countries	1246
Akhmedov Doniyorbek	
O'zbekistonda raqamli iqtisodiyotini rivojlanishi va uning asosiy yo'nalishlari	1250
Azizova Manzura Ibragimovna	
The theoretical importance of product cost reduction in industrial production	1254
Dilfuza Baxramovna Safarova	
Fond bozorlarining tashkil etilishi va rivojlanish tendensiyalari	1261
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich	
Mamlakatda davlat tibbiyot muassasalarining tutgan o'rni va ularni rivojlantirish yo'nalishlari	1266
Sultonova Mushtariy Abdulabbosovna	
Obligatsiyalar bozorida banklarning ishtiroki va ahamiyati	1272
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li	
Milliy iqtisodiyotimizda investitsiya portfelini shakllantirishning nazariy asoslari	1277
Ibragimov Gafurjan Axmetovich	
Kompaniyalarning tashqi savdo faoliyatini moliyalashtirishning nazariy asoslari va xorij tajribasi	1282
Ibragimov Mansur Axmedovich	
Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida)	1286
Mamayusupov Omonulla Mamatqulovich	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



XO'JALIK YURITUVCHI SUBYEKTLARDA TOVAR- MODDIY ZAXIRALAR MANBALARI VA ULARNI SHAKLLANTIRISH AMALIYOTI



Nurmanov Ulugbek Anorbayevich

iqtisodiyot fanlari doktori, Toshkent moliya instituti dotsenti

Annotatsiya: Global iqtisodiyot sharoitida jahonning turli mamlakatlarida har bir xo'jalik yurituvchi subyekt joriy aktivlar tarkibidagi mavjud tovar-moddiy zaxiralardan samarali foydalanish, hisobga olish va uning tahlilini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Kalit so'zlar: joriy aktivlar, tovar-moddiy zaxiralar, tovar-moddiy zaxiralari tahlili, xom ashyo, materiallar, tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, detallar, yoqilg'i, materiallar harakati.

Abstract: In the context of a global economy in various countries of the world, special attention is paid to scientific research aimed at the effective use and accounting of existing inventories in the structure of the current assets of each business entity and improving their analysis.

Key words: current assets, inventories, inventory analysis, raw materials, materials, finished products, building materials, parts, fuel, movement of materials.

Аннотация: В условиях глобальной экономики в различных странах мира особое внимание уделяется научным исследованиям, направленным на эффективное использование, учёт имеющихся товарно-материальных запасов в структуре текущих активов каждого хозяйствующего субъекта и совершенствование их анализа.

Ключевые слова: текущие активы, запасы, анализ запасов, сырье, материалы, готовая продукция, строительные материалы, детали, топливо, движение материалы.

KIRISH

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralarni buxgalteriya hisobida yuritish, baholash, inventarizatsiyasini o'tkazish, tovar-moddiy zaxiralar auditini rejalashtirish, ichki nazorat va tahlil jarayonlarini takomillashtirishga qaratilgandir. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tovar-moddiy zaxiralar tahlilini nafaqat buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida amalga oshirish, balki moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida tovar-moddiy zaxiralarni tasniflash, axborotlarni moliyaviy hisobotlarda ochib berish, shu bilan birga, tovar-moddiy zaxiralari tahlilining zamonaviy usullarini qo'llash hamda boshqaruv qarorlarini qabul qilishda tahlil ma'lumotlarining ishonchliligi bilan bog'liq muhim masalalari hozirgi kunda dolzarbdir.

Xo'jalik yurituvchi subyektlarning uzluksiz va samarali faoliyat yuritishida joriy aktivlar tarkibidagi tovar-moddiy zaxiralari asosiy o'rinni egallaydi. Shu sababli ham qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarining tovar-moddiy zaxiralarni tahlil qilishda me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish dolzarb masalalardan bo'lib hisoblanadi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyekti tomonidan tovar-moddiy zaxiralardan yil davomida to'liq va tejab-tergab foydalanish muhim hisoblanib, mehnat predmetlariga bo'lgan talab mustaqil ravishda rejalashtiriladi. Shuningdek, "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq "Tovar-moddiy zaxiralarni baholash quyidagi ikkita bahoning eng pasti bo'yicha – balans tuzilayotgan sanadagi haqiqiy tannarx (sotib olish narxi yoki ishlab chiqarish tannarxi) bo'yicha yoki bozor bahosi (realizatsiya qilishning sof qiymati) bo'yicha amalga oshiriladi" [1].

Shu bilan birga, tovar-moddiy zaxiralari harakati bilan bog'liq barcha muomalalar buxgalteriya hisobini yuritishdagi asosiy huquqiy hujjat O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonuni orqali tartibga olinadi. Ushbu qonunning 12-moddasida aktivlar va majburiyatlarni baholash tartibi keltirilgan. Mazkur qonun bilan birga bir qator buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS) va Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS)lar ham tovar-moddiy zaxiralarni hisobga olishning me'yoriy-huquqiy asoslari hisoblanadi.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Buxgalteriya hisobining standartlariga nazar tashlayligan bo'lsak, quyidagilarni ko'rsatib o'tishimiz mumkin: 1-son "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli BHMSning 96-bandida "Hisob siyosatida tovar-moddiy zaxiralar bo'yicha axborotlar yoritib berilishi"^[2] ko'rsatilgan.

Mazkur mavzuga oid iqtisodchi olimlarning nazariy va amaliy jihatlari yuzasidan fikrlariga to'xtalib o'tsak.

Xususan, J. Shraybfeder fikriga ko'ra "Zaxiralarning samarali boshqarilishi iste'molchilar talablarining qondirilishiga va sof foydaning maksimalashtirilishiga xizmat qiladi" – deb ta'kidlaydi^[4].

Rus iqtisodchi olimlaridan N. Ladutko fikriga ko'ra, "Ishlab chiqarish zaxiralari xom ashyo, materiallar, sotib olingan yarim tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar, konstruksiyalar, detallar, yoqilg'i va boshqalar, ya'ni tovar-moddiy boyliklar tayyor mahsulot olish maqsadida inson mehnati ularga yo'naltirilgan mehnat predmetlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish jarayonida asl shaklini saqlaydigan va mahsulotga bahoni bosqichma-bosqich o'tkazuvchi mehnat vositalaridan farqli o'laroq, mehnat obyektlari to'liq iste'mol qilinadi, o'z qiymatini shu mahsulotga to'liq o'tkazadi va har bir ishlab chiqarish siklidan keyin almashtiriladi"^[5] – deb ta'kidlagan.

O. Levkovichga fikricha "Ishlab chiqarish zaxiralari deganda, mehnat predmetlari sifatida foydalaniladigan, qayta ishlash yoki ishlab chiqarish jarayonida yangi foydalanish qiymatini yaratishda yoki iqtisodiy ehtiyojlar uchun foydalanish uchun mo'ljallangan ishlab chiqarish elementlari tushuniladi. Ular to'liq bir ishlab chiqarish siklida iste'mol qilinadi va o'z qiymatini mahsulot (ishlar, xizmatlar) qiymatiga to'liq o'tkazadi"^[6] degan xulosaga kelgan.

Bu borada respublika iqtisodchi olimlaridan M. Kalonov va boshqa hammualiflarning fikriga ko'ra "Tovar-moddiy zaxiralari doimo moddiy-texnik, ta'minot tizimining xavfsizligini ta'minlaydigan, uning moslashuvchan tarzda amal qilishga olib keladigan omillardan biri hisoblanadi va o'ziga xos "sug'urta" rolini bajaradi"^[7].

S. Tashnazarovning fikricha "milliy standartimizda tovar-moddiy zaxiralarga berilgan ta'rifda "...ma'muriy va ijtimoiy-madaniy vazifalarni amalga oshirish" degan jumlaning olib tashlash kerak, deb o'ylaymiz, chunki bu jumla uzoq muddatda foydalanadigan moddiy aktivlarning ta'rifida ham keltirilgan"^[8] – deya ta'kidlagan.

N. Raxmonovning fikricha "Tovar-moddiy zaxiralar – kapital doiraviy aylanishining birinchi bosqichidagi moddiy aktivlar, ya'ni hali ishlab chiqarish jarayoniga berilmagan va o'zlarining natural-moddiy shaklini to'liq saqlab turgan ishlab chiqarish zaxiralari; asosiy podaga o'tkazish yoki sotish maqsadida o'stirilayotgan va boquvdagi chorva mollari, ishlab chiqarishdan olingan tayyor muhsulotlar; sotish uchun mo'ljallangan tovarlar; tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor va ishlab chiqarishdagi yaroqsiz mahsulotlardan iborat"^[9] – deb ta'riflagan.

M. Xaydarov fikriga ko'ra "Tovar-moddiy zaxiralarga tashkilotga tegishli bo'lgan va xizmat qilish muddati bir yildan ortiq bo'lmagan yoki bir operatsion sikl mobaynida foydalaniladigan mol-mulk kiritiladi",^[10] degan xulosaga kelgan.

A. Temirovning fikricha "Zaxiralar – kelgusida muayyan xarajatlarga sarflanishi mumkin bo'lgan xususiy kapitalning bir qismidir"^[11].

Shu sababli ham mazkur mavzu doirasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarda xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralari tarkibidagi materiallar kirimi, materiallarning saqlanish holati, materiallar harakati, o'z vaqtida hujjatlashtirilishi, ularni tayyorlash bilan bog'liq sarflarni amalga oshirilishi va to'g'ri aks ettirilishi, shuningdek, material sarflari hamda aylanishi to'g'risidagi barcha ko'rsatkichlarni kompleks va tizimli tahlili o'rganilmagan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot davomida, tizimli tahlil, statistik guruhlar va taqqoslama tahlil, kompleks tahlil, ekspert baholash va boshqa usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xo'jalik subyektlarni materiallar bilan ta'minlash tahlilida moddiy-texnika ta'minotini samarali va bir maromda ishlashi, zaruriyatga qarab moddiy resurslardan tejab-tergab foydalanish va ularning zaxirasini kamligini nazarda tutgan holda amalga oshirilishini aniqlaydi.

Tadqiqot obyekti "O'z sanoatqurilish materiallari" uyushmasi va uning tizimidagi xo'jalik yurituvchi subyektlarida tayyor mahsulotlar quyidagi ko'rinishda tarkiblangan:



1-jadval: “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasining 2020-2021-yillarda tayyor mahsulotlar tarkibi va ularning tahlili¹ (mlrd so‘m)

T/p	Ko‘rsatkichlar nomi	2020-yil	2021-yil
1	Qurilish materiallari, jami	16841,2	21890
2	Bog‘lovchi materiallar (gips, ohak, sement, quruq arashlamalar va boshqalar)	7540 44,8%	9850 45,0%
3	Bezatish materiallari (keramik plitka, linoleum, oboy, lok-bo‘yoq materiallari va boshqalar)	2490 14,8%	3260 14,9%
4	Tom yopqich materiallari (shifer, yumshoq tom yopqich materiallar, cherepitsa va boshqalar)	2100 12,5%	2750 12,6%
5	Maxsus qurilish materiallari (sanitar-texnik buyumlar, qurilish oynasi, polimerlar va boshqalar)	580 3,4%	760 3,5%
6	Devorbop materiallar (qurilish g‘isht, “sendvich” panel, gazoblok va boshqalar)	2000 11,9%	2620 12,0%
7	Noruda qurilish materiallari (qum, chaqiq tosh va boshqalar)	540 3,2%	620 2,8%
8	Boshqa qurilish materiallari	1591 9,4%	2030 9,3%

Ushbu jadval ma’lumotlarida uyushmaning tayyor mahsulotlar hajmi har yili ortib borganligini kuza-tishimiz mumkin. Ya’ni 2020-yil 16841,2 mlrd. so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2021-yilga kelib 21890 mlrd. so‘mga ko‘paygan. Bunday o‘zgarishlarga asosiy sabab aholining yildan yilga zamonaviy qurilish materiallariga bo‘lgan ehtiyojini ortib borishi sabab bo‘lgan.

Iqtisodiyotni globallashuvi sharoitida aholining qurilish materiallariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish hamda tarmoqni yanada rivojlantirish maqsadida Prezidentning bir qator qaror va farmonlari qabul qilindi. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi “Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlanti-rishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4335-son qarori tasdiqlangan. Qarorga muvofiq qurilish materiallari ishlab chiqarishni diversifikatsiya qilish va mahsulot turlarini kengaytirish hisobiga qurilish mate-riallari ishlab chiqarishning maqsadli ko‘rsatkichlari, qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga doir kompleks chora-tadbirlar, qurilish materiallari sanoati sohasida amalga oshiriladigan istiqbolli loyihalar belgilab berilgan^[3].

Mazkur qarorda tadqiqot obyekti “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasiga tegishli chora-tadbirlar das-turini bajarish bo‘yicha bir qancha vazifalar yuklatilgan. Respublikada qurilish materiallari ishlab chiqarish tar-mog‘ini yanada rivojlantirishga hamda energiya tejaydigan texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ishlab chiqa-ruvchi xo‘jalik subyektlariga bir qator soliq imtiyozlari berish orqali joriy aktivlar hajmini yanada oshirib borish imkoniyatini yaratish va bu orqali joriy aktivlarga bo‘lgan talabni to‘laroq qondirish imkoniyati yuzaga keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda har bir xo‘jalik yurituvchi subyektlarida tovar-moddiy zaxiralarini boshqarishning muhim qismi sanalgan omillar tahlili asosida ishlab chiqarish zaxiralarining shakllanishi va ularning muomala jarayonidagi harakatiga qarab, tashqi hamda ichki omillarning ta’sirini aniqlash imkonini beradi. Ushbu tashqi omillarga mol yetkazib beruvchilar ta’siri – bu materiallar yetkazib berish muddatiga rioya qilinmasligi, shartnoma shartlarining buzilishini o‘z ichiga oladi; xaridorlar ta’siri – bu talab hajmining o‘zgar-ishida o‘z ifodasini topadi. Shu bilan birga ichki omillar qatoriga tashkilotdagi ishlab chiqarish-xo‘jalik muhitining ta’sirini tavsiflaydigan omillar kiradi. Ushbu omillar guruhi kadrlar ko‘nimsizligi va kasbiy tayyorgarligi, moddiy resurslarga ehtiyojni noto‘g‘ri rejalashtirish, tovarlarni saqlash uchun zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihoz-lash va h.k. kiradi. Yakuniy bosqichda tovar-moddiy zaxiralar darajasini nazorat qilish samarali mexanizmlarini ishlab chiqish zarur^[12].

Xo‘jalik yurituvchi subyektlar tovar-moddiy zaxiralar tahlilida zaxiralarni rejalashtirish va nazorat qilishning mavjud usullaridan amalda qo‘llamaydi hamda zaxiralarni boshqarish samaradorligi ko‘rsatkichlaridan har doim ham foydalanmaydi. Bu ko‘rsatkichlar orqali esa iqtisodiy tahlil o‘tkazilayotgan davr uchun zaxiralar aylanishini, zaxiralar bilan ta’minlanganligini, joriy aktivlarning ortiqchaligini aniqlashda yordam beradi.

1 “O‘zsanoatqurilishmateriallari” uyushmasi ma’lumotlari asosida tayyorlangan



Shuningdek, tovar-moddiy zaxiralar miqdorini tahlil qilish zaxiralar va o'z aylanma mablag'lari mavjudligi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlaydi. Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar hajmining oshishi o'z mablag'lari manbayi kamayishiga olib keladi. Buning natijasida qisqa muddatli qarzlarning ko'payib zaxiralarni aylanish ko'rsatkichlari yomonlashadi. Demak, xo'jalik yurituvchi subyektlar mavjud resurslardan samarasiz foydalanganligidan dalolat beradi. Bu esa ortiqcha tovar-moddiy zaxiralarning rejalashtirgan me'yoridan yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Xulosa qilishimiz mumkinki, har bir xo'jalik yurituvchi subyekt eng avvalo, ombordagi og'ishlarni aniqlash va moddiy resurslar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini doimo tahlil qilish lozim.

Shunday qilib, moddiy resurslarni boshqarish muammosi moddiy resurslardan ishlab chiqarishda foydalanish, xom ashyo, material, yoqilg'i va energiya xarajatlarini tahlil va nazorat qilish nuqtayi nazaridan katta ahamiyatga ega bo'ladi. Ushbu xarajatlarning bir qismini qoplash uchun muayyan chora-tadbirlar yo'nalishlarini belgilash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- xo'jalik jarayonida foydalanilmagan resurslarni chetga sotish;
- ortiqcha resurslarni boshqa bo'linmaga o'tkazish;
- mol yetkazib beruvchidan moddiy resurslarni almashtirish (ushbu mol yetkazib beruvchidan xarid qilingan resurslarni shu mol yetkazib beruvchidan boshqa resurslarga aylamashtirish);
- narxni pasaytirgan holda resurslarni yetkazib beruvchiga qaytarish;
- materiallarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish.

Aks holda zaxiralarni toifalashtirish va ularning harakati uchun mas'ul shaxslarni belgilash talab qilinadi. Zaxiralar darajasini optimallashtirish va ularni shakllantirish, saqlash xarajatlari o'rtasida muvozanat topish masalasi ortiqcha vaqt va harakatlar talab qiladi. Zaxiralarni keragidan ortiqchaligi muammosini hal qilish zaxira ko'rsatkichlarini, shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektning moliyaviy imkoniyatlarini tahlil qilishni talab qiladi, chunki haddan tashqari o'rnatilgan standartlar katta xarajatlarni talab qiladi.

Ta'kidlash joizki tovar-moddiy zaxiralar shakllantirish bilan bog'liq muammolarni o'rganish jarayonida tovar-moddiy zaxiralarni to'g'ri boshqarish siyosati shuni anglatadiki, xo'jalik yurituvchi subyektlar zaxiralarni boshqarish siyosatining asosiy bosqichlariga tayangan holda zaxiralarni shakllantirish jarayonini rejalashtirishlari maqsadga muvofiq.

Hozirgi bosqichda davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini jadallashtirishda moddiy resurslarni har tomonlama tejash ishlab chiqarish samaradorligining oshirishini ta'minlashga xizmat qiladi. Har bir xo'jalik yurituvchi subyektdagi moddiy resurslar ortib borayotgan ehtiyojlarni qondirishning asosiy manbasi hisoblanadi. Resurslarni tejash va uning muammolarini hal qilish avvalo, faoliyatning asosini tashkil etadigan tovar-moddiy zaxiralarni o'z ichiga olgan resurslarning mavjudligini hamda harakatini hisobga olishning barcha nozik jihatlari bilish maqsadga muvofiq.

Tovar-moddiy zaxiralardan foydalanishni tahlil qilish ishlab chiqarish jarayonini tashkil etishda muhim rol o'ynaydi. Tahlil davomida ishlab chiqarish jarayonida tovar-moddiy zaxiralardan samarasiz foydalanish holatlari aniqlanadi, olingan ma'lumotlar asosida aniq boshqaruv qarorlari qabul qilinadi va ijobiy natijalarga erishish uchun hamda rejadani chetlanishlarni bartaraf etish choralari ko'riladi.

Xo'jalik yuritishning yangicha sharoitlarida buxgalteriya hisobini tashkil etishda xo'jalik yurituvchi subyektda mavjud bo'lgan tovar-moddiy zaxiralarni baholash alohida qiziqish uyg'otadi. Ishlab chiqarish xarajatlarini hisobga olish ishlab chiqarish xarajatlarini shakllantirish ning to'g'riligi, xo'jalik yurituvchi subyektning mulkiy va moliyaviy holatini tavsiflovchi hisobot ko'rsatkichlarining sifati va ishonchliligi mazkur subyektda qo'llaniladigan baholash uslubiyatiga bog'liq. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tovar-moddiy zaxiralari tahlil qilinganda yo'ldagi va qayta ishlashga berilgan, ishlanadigan, qayta ishlanadigan, ishlab chiqarish va boshqa xo'jalik maqsadlari uchun ishlatiladigan mehnat buyumlari, xom ashyo va materiallar, joriy aktivlarning tarkibiga kiritilgan mehnat buyumlarining tarkibi, miqdori, harakati, ularni tayyorlash, sotib olish, qayta baholash jarayonlari to'g'risidagi ma'lumotlarni umumlashtirishning tartib va qoidalari o'rganiladi. Tahlil jarayonida tovar-moddiy zaxiralarning tarkibi, holati, harakati, miqdori, sotib olinishi yoki ishlab chiqarilishi, baholash va qayta baholash tartiblariga e'tibor beriladi.

XULOSA

Xo'jalik yurituvchi subyektlarda tovar-moddiy zaxiralar ta'minoti bilan bog'liq muammolar qatoriga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- materiallarni xarid qilish bilan shug'ullanadigan xo'jalik yurituvchi subyektlar xodimlarining mol yetkazib beruvchilar haqida yetarli ma'lumotga ega emasligi;



- mol yetkazib beruvchilarni tanlashning rasmiylashtirilgan tartibining mavjud emasligi;
- ishlab chiqarish jarayonida kutilmagan vaziyatlar (smenalar ishidagi farq, kutish, kechiqish, texnologik turib qolishlar);
- keng ko'lamli mahsulot *ini ishlab chiqarish;
- ishlab chiqarishni reja bo'yicha to'xtatib turish (stanoklar buzilishi, detallarni almashtirish va qayta sozlash) va hakoza.

Yuqorida bildirilgan fikrlarni umumlashtirgan holda xo'jalik yurituvchi subyektlar, jumladan, tadqiqot obyekti qurilish materiallari ishlab chiqarish korxonalarida joriy aktivlar tarkibida tovar-moddiy zaxiralarning tutgan o'rnini ifodalash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'RQ-404-son Qonuni. 2016-yil 13-aprel.
2. "Hisob siyosati va moliyaviy hisobot" nomli 1-son BHMS.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-maydagi "Qurilish materiallari sanoatini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4335-son qarori.
4. Шрайбфедер Дж. Эффективное управление запасами / Джон Шрайбфедер: Пср. с англ. – 2-е изд. – М.: "Альпина Бизнес Букс", 2006. – С. 15.
5. Ладутько Н. И. Бухгалтерский учет в промышленности: учебное пособие/ Н. И. Ладутько. – Мн.: "Книжный Дом", 2005. – С. 174.
6. Левкович О. А. Бухгалтерский учет: учеб. пособие / О. А. Левкович, И. Н. Тарасевич. – 8-е изд., перераб. и доп. – Минск: "Амалфея", 2012. – С. 129.
7. Kalonov M. B., Ortiqov X. A., Babaxalov N. E., Ergashev Sh. T. Buxgalteriua hisobi. O'quv qo'llanma. –Tohskent. "Zamin nashr", 2022/ – V. 678.
8. Tashnazarov S. N. Tovar-moddiy zaxiralar tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari. // "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. – № 6, noyabr-dekabr, 2017.
9. Raxmonov N. R Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish. i.f.n. diss. Avtoreferati/ O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi. – T: 2010. – B. 22.
10. Xaydarov M. T. Budjet tashkilotlarida tovar-moddiy zaxiralar hisobini yuritish tartibi. // Iqtisod va moliya. 2015. 8-son. – B. 61.
11. Temirov A. A. Moliuaviu hisobot muammolari. Darslik. –T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uui", 2021. – B. 18.
12. Xayitboev M. I. Tovar-moddiy zaxiralar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. 2021. – B. 15.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.